Через систему OPENINFO.UZ подтверждено с использованием ЭЦП. Код документа: 66N5RToBnTa5NCcRNOX

# Единый портал корпоративной информации

## Объявления

"O'zRTXB" AJ
Объявление
"O'ZBEKISTON RESPUBLIKA TOVAR-XOMASHYO BIRJASI" AKSIYADORLIK JAMIYATI

AKSIYADORLARINING YILLIK UMUMIY YIG'ILISHI O'TKAZILISHI TO'G'RISIDA XABARNOMA

**“O‘zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi” aksiyadorlik jamiyati**

**aksiyadorlarining yillik umumiy yig‘ilishi o‘tkazilishi to‘g‘risida**

**XABARNOMA**

**HURMATLI AKSIYADORLAR!**

“O‘zRTXB” AJ aksiyadorlariga **2026-yil 18-martkuni soat 11:00da** aksiyadorlarning yillik umumiyyig‘ilishio‘tkazilishinima’lumqiladi.

Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi aksiyadorlar umumiy yig‘ilishlarini masofadan turib internet tarmog‘ida onlayn rejimda o‘tkazishga mo‘ljallangan **“Elektron ovoz berish - eVOTE”** (http://evote.uz/) elektron ovoz berish servisi orqali o‘tkaziladi.

Aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishida ishtirok etuvchi “O‘zRTXB” AJ aksiyadorlari reyestrini shakllantirish kuni: **2026-yil 12-mart**.

**Kun tartibi:**

**1. “O‘zRTXB” AJ aksiyadorlari umumiy yig‘ilishining reglamentini tasdiqlash.**

**2. “O‘zRTXB” AJning yillik hisobotini va 2025-yil uchun biznes-reja parametrlarining bajarilishini, shuningdek “O‘zRTXB” AJni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi hisobotni tasdiqlash.**

**3. “O‘zRTXB” AJ Kuzatuv Kengashining 2025-yildagi faoliyati yakunlari bo‘yicha hisobotini eshitish.**

**4. “O‘zRTXB” AJning 2025-yilda milliy buxgalteriya standartlari va xalqaro moliyaviy hisobot standartlari bo‘yicha tuzilgan moliyaviy hisobotini tekshirish natijalari bo‘yicha auditorlik xulosalarini ko‘rib chiqish.**

**5. 2025-yil uchun “O‘zRTXB” AJ tomonidan SMK (samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari) va ISK (integral samaradorlik koeffitsiyentlari) qiymatlari hisob-kitoblarining to‘g‘riligini va ularning bajarilish foizlarini tekshirish bo‘yicha auditorlik tashkilotining hisobotini ko‘rib chiqish.**

**6. “O‘zRTXB” AJda korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalari to‘g‘risidagi hisobotlarni ko‘rib chiqish:**

**- 2025 yil yakunlari bo‘yicha Korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalariga rioya etilishi yuzasidan;**

**- davlat ulushi mavjud korxonalar uchun Korporativ boshqaruv qoidalariga rioya qilinishi yuzasidan 2025-yilda o‘tkazilgan monitoringi natijalari bo‘yicha.**

**7. “O‘zRTXB” AJning 2025-yil yakunlari bo‘yicha sof foydasini taqsimlash, dividendlar miqdorini, ularni to‘lash shakli, tartibi va muddatlarini belgilashto‘g‘risida.**

**8. “O‘zRTXB” AJ Boshqaruv a’zolarining vakolatlarini uzaytirish to‘g‘risida.**

**9. “O‘zRTXB” AJning joriy xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq bitimlarni belgilashto‘g‘risida.**

**10. “O‘zRTXB” AJ ijro organiga 2026-2027-yillar uchun to‘lanadigan mukofot va kompensatsiyalarning eng yuqori miqdorini belgilash to‘g‘risida.**

**11. 2011-yil 10-iyundagi aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishining 2010-yil yakunlari bo‘yicha sof foydaning 14,39 foizini taqsimlash to‘g‘risidagi qarorini qayta ko‘rib chiqish.**

Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ko‘rib chiqiladigan materiallar bilan aksiyadorlar Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani, Bobur ko‘chasi 77-uyda joylashgan Birja binosida, 2026-yil 11-mart boshlab aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishi o‘tkaziladigan kunga qadar ish kunlari soat 10-00 dan 16-00 gacha tanishib chiqishlari mumkin.

Aksiyadorlar http://evote.uz/ (http://evote.uz/) internet saytining elektron ovoz berish servisi orqali yig‘ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan aksiyadorlar ro‘yxatiga kiritilganligi haqida elektron xabar olgan vaqtdan boshlab Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ishtirok etuvchi aksiyadorlar sifatida ro‘yxatdan o‘tkazilgan deb hisoblanadi.

Aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishida elektron ovoz berish servisi orqali ishtirok etish qoidalari (shartlari) bilan http://evote.uz/ (http://evote.uz/) saytida tanishib chiqishingizni so‘raymiz.

Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ishtirok etish va ushbu yig‘ilishda ko‘rib chiqiladigan materiallar bilan tanishish yuzasidan savollar bo‘yicha (71) 207-00-33 (ichki:1045) telefon raqami orqali murojaat qilishingizni so‘raymiz.

Aksiyadorlar o‘z murojaatlarini quyidagi elektron manzillarga yuborishlari mumkin: info@rtsb.uz (mailto:info@rtsb.uz).

24.02.2026

---

Источник: https://openinfo.uz/announce/20373/
Дата загрузки с портала: 04.04.2026
Дата подписания: 24.02.2026

| | | |
|---|---|---|
| **O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOVAR-XOMASHYO BIRJASI AJ Direktor** | | **MUSTAFINA VIKTORIYA VALEREVNA** |